

BAHONING PREDMET VA BELGI YORDAMIDA IFODALANISHI

E.Ibragimova, FarDU o'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Аннотация

Ushbu maqolada bahoning predmet va belgi yordamida ifodalanishi xususida fikr yuritiladi.

Аннотация

В данной статье изложено мнение об отаображении оценок при помощи предметов и знаков.

Annotation

In this it was mentioned the idea of reflecting the points with helping of objects and symbols

Kalit so'z va iboralar: baho, predmet, belgi, sub`ekt, aksiologiya, nomlash, ijobiy munosabat, salbiy munosabat.

Ключевые слова и выражения: оценка, предмет, знак, субъект, аксиология, номинация, положительное отношение, отрицательное отношение.

Key words and word expressions: Point, objects, symbol, subject, acciology, name, positive attitude, negative attitude.

Til – kishilarga fikrlashuv, fikrlash quroli bo'lib xizmat qiladi¹. Har bir til uning sohibi bo'lmish jamoaning bebaho mulki hisoblanadi. U borliq haqidagi bilimlarni ifodalash vositasigina emas, balki tinglovchiga ta'sir etuvchi vosita hamdir. Shuning uchun til faqat kommunikativ vazifanigina emas, ekspressiv-emosional vazifani ham bajaradi. Leksemaning mazmun jihatida, voqelikni nomlashdan tashqari nomlanayotgan voqelikka munosabat ham bildiriladi. Voqelikka munosabat bildirish belgisi baho atamasi nomi ostida yuritiladi.

O'zbek tilida yangi yo'nalish sifatida yuzaga kelgan baho kategoriyasi haqida turli mulohazalar yuzaga kelmoqda. Tilshunos olim V.I.Banaru bahoga quyidagicha ta'rif bergan: baho-aksiologik atama bo'lib, natijali aspektni ifodalovchi baho

¹ Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili, -T., 2010, 1-tom, 3-b.

sub`ekti va uning predmeti o`rtasida o`zaro munosabat o`rnatuvchi jarayon. Zero, baho predmeti qatoriga nafaqat sub`ekt uchun ijobiy ahamiyatga ega bo`lgan qadriyatlar, balki nol darajali va salbiy qadriyatlar ham aloqador bo`lib, bu tushunchaning umumiy nisbiyligini isbotlaydi”².

Leksemaning mazmun jihatida, voqelikni nomlashdan tashqari nomlanayotgan voqelikka munosabat ham bildiriladi. Baho munosabati turli aspektlarga ega bo`lib, inson faoliyatining alohida bir sohasi bilan bog`langan holda aniqlanadigan aloqalar, bog`lanishlar tushuniladi³.

Munosabatlar deganda bir butunlikning tarkibiy qismlari - birliklari orasidagi o`zaro aloqalar, bog`lanishlar anglashiladi.

Ma`lumki, predmetlik tushunchasi ot so`z turkumiga mansub leksemalarga xos. Tilning emosional-ekspressiv vazifasi fonetik sathdan tashqari barcha sath birliklari orqali namoyon bo`ladi. Ayniqsa, leksik sathda yorqinroq namoyon bo`ladi.

Leksemaning mazmun jihatida asosiy hodisa - leksik ma`no; baho semasi asosan uch xil ifodalanadi:

- 1) morfema yordamida;
- 2) leksemaning o`zi bilan;
- 3) kontekst yordamida;

Baho semasining morfema yordamida ifodalanishi morfologik ifodalanish deyiladi. Hozirgi o`zbek tilida bunday vazifani erkalash, kichraytirish ma`nolarini anglatuvchi -cha,-gina, -jon, -choq, -chak kabi qo`shimchalar bajaradi. Bu morfemalar ijobiy munosabat ifodalashga xizmat qiladi. Masalan:

Bo`rixon do`mboqqina bola bo`lgan edi. Uni yomon ko`zdan asrasin, deb kiyimlariga tumoru ko`zmunchoqlar taqib qo`yardi. (S.Ahmad. "Qorako`z majnun").

² Банау В.И. Оценка, модальность, прагматика. - Калинин, 1987, с.14.

³ Санаева И. В. Аксиологический аспект языковой картины мира в романе Л.Н. Толстого «война и мир» (дихотомия «добро – зло»). Автореф. канд. филол. наук. - Калининград, 2007, стр.10., 25.С.

- *Voy, sen qanaqa mehrsiz bola chiqding. Axir men onaginangni singlisiman!* (S.Ahmad. "Qishdan qolgan qarg'alar").

Yuqorida keltirilgan misollarda "do'mboqqina", "ko'zmunchoq", "onaginang" kabi ot leksemalarda erkalash ma'nosini ifodalovchi baho semasini yaqqol ko'rish mumkin.

-cha affiksi yordamida yasaluvchi forma asosan kichraytirish ma'nosini ifodalaydi. Bu qo'shimcha shaxs bildiruvchi otlardan erkalash formasi yasaganda, kichraytirish bilan birga hurmatlash, erkalash yoki kamsitish ma'nolari ifodalanishi mumkin. Lekin bu ma'nolar kichraytirish ma'nosiga qo'shimcha tarzdagi so'zning leksik ma'nosi va boshqa faktorlar ta'sirida kelib chiqadigan ottenkalar bo'ladi. Masalan:

Yo'ldoShboy o'zimiz tengi yigitcha edi. qo'shni sinfda o'qirdi. Lekin juda yaxshi kiyinardi. Shunday kiyinardiki, bir-ikkita bolalar hasad kilganlaridan uning ust-Boshini bir-ikki marta yirtib tashlashgan edi. Menga u bola yoqardi, umuman. Yaxshi o'qirdi, informasiyaga boy edi. So'ngra undayam qandaydir, siz aytmish "romantika"dan bor edi. (Sh.Xolmirzaev. Hikoyalar.)

Baho semasi leksemaning o'zi bilan ifodalansa, leksik ifodalanish deyiladi. Bunda baho semasi leksemalarning o'zaro semantik munosabatida ochiq ko'rinadi⁴. Masalan yuzlashtirish bayonnomasi, bet, oraz, aft, bashara, turq leksemalari aynan bir leksik ma'noni anglatadi, baho semasining ifodalanishiga ko'ra, bo'yoqdorligi, ya'ni ijobiy va salbiy ma'no ifodalashiga ko'ra farqlanadi. Baho semasi jihatidan eng betaraf leksema "yuz" sanaladi. Masalan :

Janozaga qishloqning katta-kichik hammasi keldi. Faqat Nurim sartarosh kelolmadi. Yurt ko'zida uning yuzi shuvit edi. (S.Ahmad. "Azroil o'tgan yo'llarda").

Yuz leksemasi aslida betaraf baho ifodalovchi leksema hisoblanadi.

Keltirilgan parchada esa betaraflikdan salbiy ma'noli leksemaga aylanmoqda.

⁴ Rahmatullaev SH. Hozirgi adabiy o'zbek tili, -T., 2010, 56-b.

Baho semasi asli betaraf baholi leksemani o'z ishlatish doirasidan boshqa bir doiraga ko'chirish tufayli ifodalansa, kontekstual ifodalanish deyiladi. Masalan:

Mana oradan bir yil o'tdi. U o'sha qizni eslaganida nihoyatda ko'hlik bir qizning yuzi, ko'zi, kelishgan gavdasi ko'z oldiga kelardi-da, zum o'tmay, bu go'zallik o'rnini tirjaygan kalla suyagi egallab olardi. (S.Ahmad."Tog' afsonasi").

Bosh leksemasi kishi tanasinining a'zosiga nisbatan qo'llaniladi, kalla leksemasi esa hayvon tanasining a'zosiga nisbatan ishlatiladi. Bulardan har biri o'zining bo'yoqdorligi ishlatilish doirasida baho semasi jihatidan betaraf hisoblanadi. Ammo kalla leksemasi hayvondan odamga ko'chirib ishlatilsa, bo'yoqdorligi jihatidan salbiy baho ifodalashga xizmat qiladi.

Leksemaning mazmun jihatini kontekst orqali ifodalanishini quyidagi misol yordamida ko'rish mumkin.

- Zulay! Qayoqda qolding?-chaqirdi u nevarasini.
- Hozir,-dedi Zulayho ichkaridan va ko'p o'tmay keldi.
- Qarang !?

Nazir ota unga o'girildi. O'girildi-yu, hang-mang bo'lib qoldi. U nevarasining bunchalik chiroyliligini bilmagan edi. Egnida oq krepdeShin ko'ylak, oyog'ida oq tufli, bir o'rim qalin, zulukdek qora sochi oldiga tushib turibdi, qo'lidagi bilaguzuk, kichkina quloqlaridagi oppoq ziraklar yaraqlardi. (O'.Umarbekov."Kimning tashvishi yo'k").

Misolimizdan qahramonning hayratlanishi, qoyil qolishini nabirasiga yuqorida bergan bahosi ishonarli tarzda kontekst orqali ifodalangan.

Ot leksemalarning asosiy xususiyatlaridan biri nomlash hisoblansa, unga qo'shimcha ravishda munosabat tushunchasining ifodalash o'rinlari ham uchrab turadi. Predmetlik va nomlash tushunchasini anglatuvchi leksemalar borliqdagi turli xil narsa va hodisalarni nomlaydi. Narsa va hodisalar ichida shaxs otlari alohida

ahamiyatlidir. Bahoning ifodalanishida boshqa otlarga nisbatan shaxs otlari ko'proq qo'llaniladi. Masalan:

"Devoriy gazeta" - bu Nasibjonning o'rtancha tog'asi Turg'unboy. Uning shunaqa ichadigan odati bor edi. Haftada bir ichadi. Ichganda ham birvarakay ichadi. Kayf qilib, hamma aka-uka, amma-xolalarinikiga boradi. Navbati bilan bo'ralab so'kadi. Kayfi tarqalguncha, o'zi charchaguncha so'kadi. Mahalla uni haftada bir chiqadigan "Devoriy gazeta" deb atardi. (S.Ahmad.Qishdan qolgan qarg'alar).

Insonga ijobiy yoki salbiy baho berilganda uning fe'l –atvori, albatta, hisobga olinadi. Yuqoridagi misolda ham Turg'unboyning gazetaga o'xshatilishida uning salbiy sifatlari nazarda tutilib baholangan.

Baho munosabati ifodalanishida o'z fikrini bildirish doirasida ob'ektiv va sub'ektiv munosabat darajasi, ularning chambarchas o'zaro aloqasi tilshunoslarning jiddiy e'tiborini o'ziga tortadi. Tadqiqotchilar baho munosabatida sub'ektiv baho birinchi darajali ekanligini ta'minlaydilar. Bu usul, ayniqsa, so'zlashuv nutqida ko'p uchraydi. Misollar tahliliga o'tamiz:

– Opang... opangga ham o'xshaysan, - dedi o'zini darrov bosib olib.

- Opang ham ko'hlik edi. - Rostdan ham o'xshaydi opasiga, - ko'nglidan o'tkazdi Nazir ota. - Ko'z-qoShlari opasining o'zi. Faqat burni o'g'limga o'xshaydi. Bizning avlodda hammaning burni go'shtdor. Buniki ham bir oz shunaqa. (O'.Umarbekov. Kimning tashvishi yo'q).

Yuqoridagi nutq parchasida qahramonimiz Nazir otaning sub'ektiv munosabati aniq tasvirlab berilgan.

Nizomning shunday dovdirab kelishlaridan birida Asrora yo'lini to'sib:

— Sen o'lgur nima qilib xira pashshadek battan ketolmay qolding? — dedi.

Adolat degan qiz unga ko'zini qisib, ma'noli iljayib qo'ydi:

— Voy opa, unaqa demang, Nizom pochchamiz-ku.

— *Hali Shunaqami? Unday bo'lsa, hu anavi bog'dan Shaftoli o'g'irlab kelsang, pochcha qilamiz.*

Adolat uni jo'rttaga ermak qildi:

— *Pochchaning yuraklari sal quyonchasigaroq. (S.Ahmad).*

Nutq parchasida Nizom ismli yigitga nisbatan “o'lgur”, “xira pasha” kabi vulgar leksemalarining qo'llanilishi orqali, qolaversa, “Pochchaning yuraklari sal quyonchasigaroq” iborasidan “hech narsani uddalay olmaydigan”, “qo'rqoq” ma'nolari ifodalanishi orqali salbiy baho anglashiladi.

Yana bir misol:

O'zbek oyimning g'azabi yana ham alanga oladi:

— *So'zimni eshitasanmi, kar?*

Otabek sovuqqina javob berdi:

— *Kar emasman, lekin sizning bu taklifingiz oldida ham kar, ham ko'rman. Bu to'g'rida siz endi ortiqcha Bosh og'ritmang. (A.Qodiriy).*

Ma'lumki, tilimizda “kar” (hech nimani eshitmaydigan), “ko'r” (ko'zi ojiz — ko'rmas) kabi leksik vositalar neytral hissiy baholov komponentlariga ega bo'lib, inkor konnotativ ma'noda qo'llaniladi, bundan tashqari, Otabekning sub`ektiv munosabati ifodalanmoqda.

Yuqoridagi misolimizda “kar” so'zi bosh qahramonimiz Otabekning onasi sanalgan O'zbek oyimning ta'biri bilan “quloqsiz” (gap uqmaydigan) ma'nosini ifodalab, inkor bahosi kontekstda oydinlashadi. So'zlardagi asl va ko'chma ma'nolarning o'zaro ta'siri implisit modallik yaratishda asosiy a'amiyatga ega. Demak, baho munosabatini ifodalashda inson asosiy ob`ekt hisoblanadi.

Baho semasini ifodalashda so'z turkumlaridan foydalanish tilshunoslikdagi yangi muammo tarzida ko'zga tashlanmoqda. Masalan:

Ot so'z turkumi shaxs yoki narsaning nomini bildirishga xizmat qilishini yuqorida ham ta'kidladik. Baho semasini hosil qilishda bu juda katta yordam beradi. Masalan:

Jalol polvon etmish yoshlarga borgan, ellik yildan beri kurash tushadi, shu paytgacha kuragi er ko'rmagan polvon. (S.Ahmad. "Azroil o'tgan yo'llarda".)

Ma'lumki, atoqli otlar ayrim shaxs yoki predmetlarning maxsus o'ziga qo'yilgan nomlardir. Yuqoridagi misolda ana shunday atoqli otlardan biri sanalgan Jalol polvonga ijobiy baho berilmoqda.

Quyidagi misolda esa, salbiy bahoni ko'rish mumkin:

- *Hoy, Haydar polvon, soqi sumbatday gavdang bilan yumalab yotibsan, uyat emasmi?*

Ma'lumki, mavhum otlar mavhum tushunchani anglatadi. Ular ko'plik Qo'shimchasini qabul qilmaydi. Baho semasining mavhum otlarda ham ifodalanishi mumkinligini misollar yordamida ko'rish mumkin. Masalan:

Axloq-odob – ma'naviyatning qismlaridan biri bo'lib, uning mohiyati sifatida ongning asosini tashkil qiluvchi estetik qadriyatlar chiqadi.

Axloq-odob – bu insonning o'z ma'naviy negiziga muvofiq harakat qilishi, fikrlashi va his qilishi, bu o'z ichki olamidan tashqarida bo'lganlarni uzatish usullari.

Ma'naviyat va axloq-odob bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalar. Ular yo'q bo'lsa shaxs va madaniyat inqirozga yuz tutadi. Axloq-odob deganda, umumiy tamoyillar va odamlarning jamiyatda bir-birlariga nisbatan axloq-odob normalarining majmui tushuniladi. Axloq-odob odamning xis-tuyg'ulari, istak va xulq-atvorini ma'lum bir olamda qabul qilingan axloqiy tamoyillarga muvofiq tartibga soladi.

Misolimizda mavhum ot sirasiga kiradigan axloq-odobga berilgan baho yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi. Bulardan ko'rinadiki, ot leksemalar faqat nominativ funksiyanigina bajarib qolmay, balki baho anglatish xususiyatiga ham ega.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, baho semasining ifodalanishi bilan voqelikka ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalaniladi. O'zbek tilida morfologik usul bilan voqelikka ijobiy munosabat bildiriladi. Leksik ifodalanishda esa, ijobiy

munosabat ham, salbiy munosabat ham bildiriladi. Kontekstual usulda, odatda, voqelikka salbiy munosabat bildiriladi. Agar ijobiy yoki salbiy munosabat bildirilmagan hollarga nisbatan betaraf baho haqida gapiriladi. Leksemalarning asosiy qismi baho semasi jihatidan betaraf bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Rahmatullaev SH. Hozirgi adabiy o'zbek tili, -T., 2010, 1-tom, 3-b.
2. Банару В.И. Оценка, модальность, прагматика.- Калинин, 1987, с.14.
3. Санаева И. В.Аксиологический аспект языковой картины мира в романе Л.Н. Толстого «война и мир» (дихотомия «добро – зло»). Автореф.канд.филол.наук.-Калининград, 2007,стр.10.,25.С.
4. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. –Т.: Фан, 1980